



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

### XORAZM VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
**2023- yil yanvar-sentabr**



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **6 134** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabriga nisbatan **633** taga ko'paygan (o'sish sur'ati **111,5 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **85** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **6 049** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **8 187,6** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **103,7 %**ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **498,1** mlrd. soʻmni (o'sish sur'ati **89,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7 689,5** mlrd. soʻmni (o'sish sur'ati **104,8 %**), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 609,1** mlrd. soʻmni (o'sish sur'ati **101,8 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

|                 | Jami<br>mlrd.<br>so'm | 2022- yil<br>yanvar-sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Yirik<br>korxonalar<br>mlrd.<br>so'm | 2022- yil<br>yanvar-sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Kichik biznes<br>va xususiy<br>tadbirkorlik,<br>mlrd. so'm | 2022- yil<br>yanvar-sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda |
|-----------------|-----------------------|--|--------------------------------------|--|--|--|
| Xorazm viloyati | <b>8187,6</b>         | <b>103,7</b>   | <b>498,1</b>                         | <b>89,9</b>  | <b>7689,5</b>  | <b>104,8</b>   |
| Urganch sh.     | 2217,4                | 103,1  | 326,2                                | 90,2   | 1891,1   | 105,7  |
| Xiva sh.        | 391,7                 | 112,8  | 17,9                                 | 85,4   | 373,9  | 114,5  |
| Bog'ot          | 506,1                 | 102,0  | 10,8                                 | 249,5  | 495,4  | 100,7  |
| Gurlan          | 658,3                 | 104,4  | 3,9                                  | 79,0   | 654,4  | 104,6  |
| Qo'shko'pir     | 411,7                 | 100,2  | 3,0                                  | 17,4   | 408,8  | 103,7  |
| Urganch         | 980,4                 | 102,7  | 26,2                                 | 87,3   | 954,2  | 103,2  |
| Hazorasp        | 860,4                 | 101,8  | 41,0                                 | 85,9   | 819,3  | 102,7  |
| Tuproqqal'a     | 195,9                 | 108,1  | 0,2                                  | 92,0   | 195,7  | 108,1  |
| Xonqa           | 519,0                 | 101,8  | 16,0                                 | 47,6   | 503,0  | 105,7  |
| Xiva            | 276,1                 | 109,2  | 21,8                                 | 615,8  | 254,3  | 102,0  |
| Shovot          | 578,2                 | 102,2  | 20,4                                 | 123,0  | 557,8  | 101,6  |
| Yangiariq       | 358,9                 | 110,1  | 1,9                                  | 63,8   | 357,0  | 110,5  |
| Yangibozor      | 233,5                 | 106,7  | 8,9                                  | 84,8   | 224,6  | 107,8  |

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Xiva shahri (**112,8 %**), Yangiariq tumani (**110,1 %**), Xiva tumani (**109,2 %**) va Tuproqqal'a tumani (**108,1 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

**Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi**  
(yanvar-sentabr, mlrd.so'm)




So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan **113,8 %** ni yoki **5 558,4** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)  
(2022- yil, 2023- yil yanvar-sentabr oyi)**



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahrida **27,1 %** bilan **2 217,4 mld. so'mni** tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Tuproqqa'l'a tumanida **2,4 %** bilan **195,9 mld. so'mni** tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi.




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7 689,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,8** %ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,9** %ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **10,1** %ga kamaydi va **498,1** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **6,1** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDAGI ULUSHI (foizda)

|                 |             |      |
|-----------------|-------------|------|
| Xorazm viloyati | <b>6,1</b>  | 93,9 |
| Urganch sh.     | <b>14,7</b> | 85,3 |
| Xiva sh.        | <b>4,6</b>  | 95,4 |
| Bog'ot          | <b>2,1</b>  | 97,9 |
| Gurlan          | <b>0,6</b>  | 99,4 |
| Qo'shko'pir     | <b>0,7</b>  | 99,3 |
| Urganch         | <b>2,7</b>  | 97,3 |
| Hazorasp        | <b>4,8</b>  | 95,2 |
| Tuproqqa'l'a    | <b>0,1</b>  | 99,9 |
| Xonqa           | <b>3,1</b>  | 96,9 |
| Xiva            | <b>7,9</b>  | 92,1 |
| Shovot          | <b>3,5</b>  | 96,5 |
| Yangiariq       | <b>0,5</b>  | 99,5 |
| Yangibozor      | <b>3,8</b>  | 96,2 |

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqa'l'a (**99,9 %**), Yangiariq (**99,5 %**), Gurlan (**99,4 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **6,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**14,7 %**), Xiva tumani (**7,9 %**), Hazorasp tumani (**4,8 %**) hamda Xiva shahrida (**4,6 %**) kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimidagi ma'lumot


|                 | Hajmi,<br>ming so'm | O'sish sur'ati,<br>foizda |
|-----------------|---------------------|---------------------------|
| Xorazm viloyati | <b>4 154,3</b>      | <b>101,9</b>              |
| Urganch sh.     | 14 665,1            | 100,8                     |
| Xiva sh.        | 4 013,7             | 110,7                     |
| Bog'ot          | 2 912,2             | 100,1                     |
| Gurlan          | 4 236,1             | 102,6                     |
| Qo'shko'pir     | 2 287,4             | 98,4                      |
| Urganch         | 4 650,8             | 100,7                     |
| Hazorasp        | 4 228,0             | 100,0                     |
| Tuproqqa'l'a    | 3 354,4             | 105,7                     |
| Xonqa           | 2 646,4             | 100,1                     |
| Xiva            | 1 806,7             | 107,5                     |
| Shovot          | 3 244,9             | 100,5                     |
| Yangiariq       | 2 949,2             | 108,1                     |
| Yangibozor      | 2 555,0             | 105,0                     |

2023- yilning yanvar-sentabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 154,3** ming so'mni (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **101,9 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**14 665,1** ming so'm), Urganch (**4 650,8** ming so'm) va Gurlan (**4 236,1** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 609,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **101,8 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **738,2** mlrd. so'mni (**100,2 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **870,9** mlrd so'mni tashkil etdi (**103,3 %**).

### **Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)**



### **Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (foizda)**




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilyonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

|                        | Jami,<br>mlrd.<br>so'm | 2022- yil<br>yanvar-sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Dehqon<br>bozorlari,<br>mlrd.<br>so'm | 2022- yil<br>yanvar-sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Chorva<br>bozorlari,<br>mlrd.<br>so'm | 2022- yil<br>yanvar-sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda |
|------------------------|------------------------|--|---------------------------------------|--|---------------------------------------|--|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>1609,1</b>          | <b>101,8</b>   | <b>738,2</b>                          | <b>100,2</b>   | <b>870,9</b>                          | <b>103,3</b>   |
| Urganch sh.            | 284,8                  | 101,4  | 193,3                                 | 115,2  | 91,5                                  | 80,9   |
| Xiva sh.               | 86,1                   | 186,0  | 71,0                                  | 167,2  | 15,1                                  | 4,0 m.   |
| Bog'ot                 | 205,6                  | 87,7   | 45,5                                  | 97,0   | 160,1                                 | 85,4   |
| Gurlan                 | 240,1                  | 107,9  | 61,1                                  | 91,1   | 178,9                                 | 115,1  |
| Qo'shko'pir            | 135,3                  | 84,1   | 81,6                                  | 76,3   | 53,7                                  | 99,4   |
| Urganch                | -                      | -  | -                                     | -  | -                                     | -  |
| Hazorasp               | 153,3                  | 87,9   | 52,3                                  | 52,7   | 100,9                                 | 134,5  |
| Tuproqqa'l'a           | 21,7                   | 155,6  | 5,7                                   | 78,3   | 16,0                                  | 2,4 m.   |
| Xonqa                  | 108,7                  | 99,6   | 71,3                                  | 88,6   | 37,4                                  | 130,6  |
| Xiva                   | -                      | -  | -                                     | -  | -                                     | -  |
| Shovot                 | 260,8                  | 99,9   | 88,1                                  | 115,0  | 172,7                                 | 93,6   |
| Yangiariq              | 66,7                   | 162,7  | 39,8                                  | 190,7  | 26,9                                  | 133,6  |
| Yangibozor             | 45,9                   | 129,7  | 28,4                                  | 135,8  | 17,6                                  | 120,9  |

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **738,2** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**326,6** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

| Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari  | Mlrd.<br>so‘m  |
|---|--|
|    | <b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> <b>326,6</b>                                   |
|    | <b>Non va non mahsulotlari</b> <b>56,5</b>   |
|    | <b>Don mahsulotlari</b><br>(mosh, loviya, guruch va boshqalar) <b>86,8</b>                         |
|  | <b>Tovuq go‘shti</b> <b>47,0</b>   |
|  | <b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b><br>(yongoq, bodom, pista va boshqalar) <b>23,9</b> |
|  | <b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...) <b>26,5</b>                                       |
|  | <b>Tuxum</b> <b>21,9</b>   |
|  | <b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b> <b>38,1</b>                       |
|  | <b>Ziravorlar</b> <b>13,7</b>  |
|  | <b>Tuzlamalar</b> <b>7,3</b>   |
|  | <b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b><br>(manzarali va qishloq xo‘jaligi) <b>11,5</b>       |
|   | <b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> <b>78,2</b>  |

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **870,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **785,2** mlrd.so'mni, qo'y va echkilar – **81,0** mlrd. so'mni, parrandalar – **5,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.

| Chorva mollari (parrandalar)   | Mlrd.<br>so'm |
|--|---------------|
|  2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar         | 394,4         |
|  1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar | 263,2         |
|  1 yoshgacah bo'lgan yosh mollar          | 126,6         |
|  Qo'ylar                                  | 68,4          |
|  Otlar                                    | 0,2           |
|  Echkilar                                 | 12,6          |
|  Kurka, o'rdak, g'oz                      | 3,1           |
|  Tovuqlar                                 | 2,3           |
|  Quyonlar                                 | 0,15          |
|  Qushlar                                  | 0,02          |

2023- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 402** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr holatiga nisbatan **11** taga kamaygan va o'sish sur'ati **100,8 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 401** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining ulushi **2,9 %** ni tashkil etib, **239,5** mlrd. so'mga yetdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,1 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **96,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

|                        | Jami<br>mlrd.<br>so'm | 2022- yil<br>yanvar-<br>sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Yirik<br>korxonalar<br>mlrd.<br>so'm | 2022- yil<br>yanvar-<br>sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Kichik<br>biznes va<br>xususiy<br>tadbirkorlik<br>subyektlari,<br>mlrd. so'm | 2022- yil<br>yanvar-<br>sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda |
|------------------------|-----------------------|--|--------------------------------------|--|--|--|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>239,5</b>          | <b>108,1</b>   | <b>8,2</b>                           | <b>119,1</b>   | <b>231,3</b>   | <b>107,7</b>   |
| Urganch sh.            | 115,3                 | 109,3  | 8,2                                  | 119,1  | 107,1  | 108,6  |
| Xiva sh.               | 13,1                  | 117,2  | -                                    | -  | 13,1   | 117,2  |
| Bog'ot                 | 7,6                   | 104,9  | -                                    | -  | 7,6  | 104,9  |
| Gurlan                 | 6,0                   | 105,9  | -                                    | -  | 6,0  | 105,9  |
| Qo'shko'pir            | 3,2                   | 107,4  | -                                    | -  | 3,2  | 107,4  |
| Urganch                | 41,4                  | 106,6  | -                                    | -  | 41,4   | 106,6  |
| Hazorasp               | 10,9                  | 107,4  | -                                    | -  | 10,9   | 107,4  |
| Tuproqqa'l'a           | 5,5                   | 107,7  | -                                    | -  | 5,5  | 107,7  |
| Xonqa                  | 5,0                   | 107,1  | -                                    | -  | 5,0  | 107,1  |
| Xiva                   | 5,9                   | 105,9  | -                                    | -  | 5,9  | 105,9  |
| Shovot                 | 14,5                  | 101,1  | -                                    | -  | 14,5   | 101,1  |
| Yangiariq              | 3,6                   | 106,6  | -                                    | -  | 3,6  | 106,6  |
| Yangibozor             | 7,5                   | 106,8  | -                                    | -  | 7,5  | 106,8  |

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- oktabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **4 518,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,0** barobarga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **2 244,7** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **175,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **2 274,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **2,4 m.**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




|                 | Hajm,<br>mlrd. so'm | Ulushi,<br>foizda |
|-----------------|---------------------|-------------------|
| Xorazm viloyati | <b>4 518,7</b>      | <b>100,0</b>      |
| Urganch sh.     | 4 263,9             | 94,4              |
| Xiva sh.        | 19,2                | 0,4               |
| Bog'ot          | 31,5                | 0,7               |
| Gurlan          | 6,8                 | 0,2               |
| Qo'shko'pir     | 8,9                 | 0,2               |
| Urganch         | 29,7                | 0,7               |
| Hazorasp        | 68,8                | 1,5               |
| Tuproqqa'l'a    | 12,0                | 0,3               |
| Xonqa           | 53,8                | 1,2               |
| Xiva            | 3,2                 | 0,1               |
| Shovot          | 5,0                 | 0,1               |
| Yangiariq       | 12,7                | 0,3               |
| Yangibozor      | 3,0                 | 0,1               |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**4 263,9** mlrd. so'm), Hazorasp (**68,8** mlrd. so'm) va Xonqa (**53,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4 428,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,2 %**ga ko‘paydi.



### Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda, **3 769,2** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,7 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **85,1 %** ni tashkil qildi.



## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA MIKROFIRMALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori hajmga ega yirik korxonalar Urganch tumani (**319,3 mlrd.so‘m**), Urganch shahri (**124,0 mlrd.so‘m**) va Gurlan (**89,7 mlrd.so‘m**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 205** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr holatiga nisbatan **257** taga ko‘paygan, o‘sish sur’ati **113,2 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni **32** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 173** tani tashkil qildi.

|                 | Jami<br>mlrd. so‘m | 2022- yil<br>yanvar-sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Yirik<br>korxonalar<br>mlrd.<br>so‘m | 2022- yil<br>yanvar-sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Kichik<br>biznes va<br>mikrofirma-<br>lar, mlrd.<br>so‘m | 2022- yil<br>yanvar-sentabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda |
|-----------------|--------------------|--|--------------------------------------|--|--|--|
| Xorazm viloyati | <b>4428,3</b>      | <b>106,2</b>   | <b>659,1</b>                         | <b>98,6</b>  | <b>3769,2</b>  | <b>107,7</b>   |
| Urganch sh.     | 2295,7             | 108,0  | 124,0                                | 89,4   | 2171,7   | 109,3  |
| Xiva sh.        | 144,9              | 105,9  | 0,0                                  | 0,0  | 144,9  | 106,3  |
| Bog‘ot          | 59,7               | 71,7   | 34,3                                 | 55,0   | 25,4   | 121,6  |
| Gurlan          | 211,9              | 95,6   | 89,7                                 | 81,3   | 122,2  | 109,8  |
| Qo‘siko‘pir     | 54,5               | 107,5  | 0,1                                  | 6,1 m.   | 54,5   | 107,4  |
| Urganch         | 790,4              | 118,7  | 319,3                                | 156,0  | 471,1  | 102,1  |
| Hazorasp        | 57,3               | 87,4   | 0,3                                  | 2,4  | 56,9   | 111,4  |
| Tuproqqał'a     | 67,3               | 107,5  | 0,1                                  | 2,2 m.   | 67,2   | 107,4  |
| Xonqa           | 166,5              | 78,2   | 40,5                                 | 41,3   | 126,0  | 109,6  |
| Xiva            | 285,8              | 109,6  | 16,2                                 | 1430,8<br>m.   | 269,6  | 103,4  |
| Shovot          | 75,3               | 107,1  | 0,1                                  | 4,4 m.   | 75,1   | 107,0  |
| Yangiariq       | 160,9              | 102,0  | 32,9                                 | 87,2   | 128,1  | 106,6  |
| Yangibozor      | 58,1               | 107,4  | 1,6                                  | 110,9  | 56,5   | 107,3  |



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Тел. 62-224-65-09**